




**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**XIZMATLAR  
SOHASINING  
RIVOJLANISHI**



**2022- YILNING  
YANVAR-FEVRAL  
OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**  
**2022- yil yanvar-fevral oylarida**

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U bilan bog'liq faoliyat doirasi juda keng bo'lib, savdo, transport, aloqa va axborotlashtirishdan moliyalashtirish, sug'urta, ta'llim va sog'liqni saqlash, shuningdek, turli xil vositachilikka qadar.



**Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari**  
**(2022- yil yanvar-fevral oylarida)**

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

2 153,5  
mlrd. so'm

1 097,6  
ming so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari

113,9 %

Xizmatlar  
sohasi

112,3 %

Aholi jon  
boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmalarning  
o'sish sur'atlari

Xizmatlar sohasida  
kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi

65,0 %

64,7 %


Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar  
ulushi

## Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida


Aholining har xil turdag'i xizmatlarga bo'lgan talabining muttasil oshib borayotgani va tegishli infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ko'rilib yotgan amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 386,7 mlrd. so'mga oshib, 2 153,5 mlrd. so'mga yetdi.



Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-fevral oylariga (**106,8 %**) nisbatan o'sish sur'ati **113,9 %** ni tashkil etdi.




**Dastlabki ma'lumotlar**  
**2022- yil yanvar-fevral oylarida**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 153,5</b>	<b>113,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	91,8	118,8
Moliyaviy xizmatlar	406,2	138,0
Transport xizmatlari	452,9	110,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	409,6	106,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	90,4	106,1
Savdo xizmatlari	709,9	109,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	47,3	110,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	84,7	91,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,0	114,3
Ijara xizmatlari	54,2	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	43,8	108,0
Shaxsiy xizmatlar	44,3	110,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,4	108,6
Boshqa xizmatlar	63,6	119,6

*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash,  
trln. so'm



2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan (1,8 trln. so'm) 2022- yil yanvar-fevral (diskret oy)da bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi **0,3** trln. so'mga oshdi (**2,1** trln. so'm).

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-fevraliga nisbatan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **0,02** trln. so'mga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-fevral oylarida bu xizmatlarning ulushi **33,0** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'satkichlar transport (**21,0** %), moliyaviy xizmatlar (**18,9** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**4,3** %), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha (**4,2** %) qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,9** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **33,5** % ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – **1,0** %.

*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning  
tarkibi, % da**  
*(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*



**33,0**

Savdo  
xizmatlari

**21,0**

Transport  
xizmatlari

**18,9**

Moliyaviy  
xizmatlar

**4,3**

Aloqa va  
axborotlashti-  
rish xizmatlari

**4,2**

Yashash  
va ovqatlanish  
xizmatlari

**3,9**

Ta'lim  
sohasidagi  
xizmatlar

**3,0**

Boshqa  
xizmatlar

**2,5**

Ijara  
xizmatlari

**2,2**

Ko'chmas mulk  
bilan bog'liq  
xizmatlar

**2,1**

Shaxsiy  
xizmatlar

**2,0**

Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
xizmatlar

**2,0**

Kompyuterlarni  
ta'mirlash  
xizmatlari

**0,9**

Me'morchilik  
sohasidagi  
xizmatlar

## *Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida*

2022- yil yanvar-fevral oylarida yuqori o'sish moliya sohasidagi xizmatlarda (**38,0 %**), boshqa xizmatlarda (**19,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**18,8 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**14,3 %**), ko'chmas mulk va shaxsiy xizmatlarida (**10,8 %**), shuningdek, transport xizmatlarda (**10,5 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**8,7 %**) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da**



Xizmatlar - jami	106,8	113,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	107,0	118,8
Moliyaviy xizmatlar	123,4	138,0
Transport xizmatlari	102,9	110,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	100,2	106,1
Savdo xizmatlari	105,9	109,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	100,1	110,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlari	100,3	91,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	96,6	114,3
Ijara xizmatlari	117,4	101,5
Kompyuter ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	102,7	108,0
Shaxsiy xizmatlar	101,2	110,8
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	88,3	108,6
Boshqa xizmatlar	97,8	119,6

■ 2021- y. yanvar-fevral

■ 2022- y. yanvar-fevral

## Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida



### Yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari

O'sish sur'ati, % da

105,9

2021- y.

109,0

2022- y.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

2021- y.

• 591,8

2022- y.

• 709,9

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	29,3	102,9
Buxoro	54,1	107,5
Vobkent	81,0	246,7
G'ijduvon	103,7	106,3
Kogon	32,2	102,3
Qorako'l	33,8	106,1
Qorovulbozor	12,6	100,4
Peshku	56,5	101,9
Romitan	37,5	103,5
Jondor	48,4	103,1
Shofirkon	33,3	103,0
Buxoro shahri	161,6	94,6
Kogon shahri	25,9	105,4

*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**Yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar**



*O'sish sur'ati, % da*

2021- y.

123,4 %

2022- y.

138,0 %

*Shahar va tumanlar kesimida  
moliyaviy xizmatlar  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

*Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm*

2022- y.

•406,2

2021- y.

•294,2

**Shahar va tumanlar**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**O'sish  
sur'ati,  
% da**

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	5,8	119,6
Buxoro	16,8	133,1
Vobkent	8,6	135,3
G'ijduvon	28,6	123,8
Kogon	0,1	109,3
Qorako'l	12,2	134,4
Qorovulbozor	3,1	124,4
Peshku	11,7	116,4
Romitan	20,7	127,4
Jondor	15,5	116,9
Shofirkon	14,1	115,1
Buxoro shahri	260,9	146,3
Kogon shahri	8,1	142,9

*Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

2,6 %

*Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat*

4,6 %

*Sug'urta  
bo'yicha  
xizmatlar*

92,8 %

*Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan  
tashqari moliyaviy  
xizmatlar*

## *Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida*

### **Yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**



*O'sish sur'ati, % da*

2022- y.

**118,8**

2021- y.

**107,0**

*Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm*


2021- y.

**• 76,6**

2022- y.

**• 91,8**

*Aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*



*Shahar va tumanlar kesimida aloqa  
va axborotlashtirish xizmatlari  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	2,6	117,3
Buxoro	4,4	115,2
Vobkent	4,6	130,6
G'ijduvon	8,0	116,4
Kogon	2,2	115,6
Qorako'l	4,3	115,8
Qorovulbozor	0,8	108,5
Peshku	3,7	122,2
Romitan	4,0	117,5
Jondor	5,2	119,4
Shofirkon	4,8	116,5
Buxoro shahri	45,2	119,7
Kogon shahri	2,0	109,9

*Dastlabki ma'lumotlar*  
*2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**Yanvar-fevral oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar**



*O'sish sur'ati, % da*

2021- y.

100,3 %

2022- y.

91,3 %

*Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm*

2022- y.

• 84,7

2021- y.

• 83,3

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

Shahar va tumanlar	2021- y.	2022- y.
Olot	1,1	1,5
Buxoro	2,0	2,3
Vobkent	1,5	1,8
G'ijduvon	5,0	6,0
Kogon	1,2	2,0
Qorako'l	1,8	2,6
Qorovulbozor	0,6	0,7
Peshku	1,7	2,1
Romitan	1,8	2,0
Jondor	2,8	3,6
Shofirkon	1,8	2,1
Buxoro shahri	60,7	56,4
Kogon shahri	1,3	1,6

2022- yil yanvar-fevral oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **84,7** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,9** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-fevralga nisbatan o'sish sur'ati **91,3** % ni tashkil etgan.

*Taqqoslash uchun:*

2021- yil yanvar-fevralda xizmatlar hajmi **83,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2020-yilga nisbatan esa atigi **0,3** % ga o'sish qayd etilgan.

## Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida

### Yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



O'sish sur'ati, % da

96,6

2021- y.

114,3

2022- y.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

2021- y.

• 34,4

2022- y.

• 44,0



2022- yilning yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **44,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,3 %** ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-fevralda ushbu xizmatlar hajmi **34,4** mlrd. so'mni yoki ularning umumiyligi hajmining **1,9 %** ni tashkil etgan.

### Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, mlrd. so'm

Shahar va tumanlar	2021- y.	2022- y.
Olot	0,9	1,1
Buxoro	2,5	3,2
Vobkent	1,2	1,5
G'ijduvon	3,5	4,5
Kogon	0,7	0,9
Qorako'l	1,3	1,6
Qorovulbozor	0,2	0,4
Peshku	1,3	1,8
Romitan	1,2	1,5
Jondor	1,1	1,3
Shofirkon	1,0	1,3
Buxoro shahri	18,1	23,3
Kogon shahri	1,4	1,6

## *Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**Yanvar-fevral oylarida yashash  
va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**



**O'sish sur'ati, % da**

2022 - y.

**106,1**

2021- y.

**100,2**

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

2021- y.

**• 71,4**

2022- y.

**• 90,4**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar, mlrd. so'm**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar tarkibi, % da**

2022- y.

**92,0**

**8,0**

Oziq-ovqat va  
ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

2021- y.

**92,2**

**7,8**

Shahar va tumanlar	2021- y.	2022- y.
Olot	2,6	3,3
Buxoro	3,1	4,0
Vobkent	4,4	5,5
G'ijduvon	8,4	10,7
Kogon	2,0	2,5
Qorako'l	2,4	3,2
Qorovulbozor	1,4	1,5
Peshku	3,0	4,0
Romitan	3,1	4,9
Jondor	2,3	2,9
Shofirkon	2,4	3,0
Buxoro shahri	34,1	42,2
Kogon shahri	2,2	2,7

*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Buxoro viloyati*	2 153,5	113,9	106,8
Olot	78,3	108,8	105,0
Buxoro	125,5	112,0	103,3
Vobkent	1 40,5	165,3	102,7
G'ijduvon	273,4	109,9	104,7
Kogon	68,9	106,4	113,4
Qorako'l	92,9	112,4	103,9
Qorovulbozor	35,1	108,8	106,3
Peshku	120,5	107,4	113,2
Romitan	116,0	111,2	109,5
Jondor	126,4	108,1	106,8
Shofirkon	91,0	108,1	107,1
shaharlar:			
Buxoro sh.	808,9	114,3	107,1
Kogon sh.	76,1	111,4	108,4

<sup>1)</sup> Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

*Dastlabki ma'lumotlar*  
*2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**2022- yilning yanvar-fevral oylarida  
aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari**



**Hajmning  
o'sishi –  
184,7 ming  
so'mga**

**Xizmatlar  
hajmi -  
1 097,6  
ming so'm**

**O'sish  
sur'ati -  
112,3 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajminining o'sishi har oyda kuzatilmoqda. 2022- yilning yanvar-fevral oylari uchun ushbu ko'rsatkich shahar va tumanlar bo'yicha Buxoro shahrida **2 861,3** ming so'mdan Shofirkon tumanida **505,1** ming so'mgachani tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 097,6** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	777,7	107,5
Buxoro	735,8	110,1
Vobkent	986,4	162,9
G'ijduvon	883,3	108,4
Kogon	858,9	104,4
Qorako'l	558,4	111,1
Qorovulbozor	1 864,9	106,4
Peshku	959,7	105,6
Romitan	799,3	109,2
Jondor	710,7	106,6
Shofirkon	505,1	106,7
Buxoro shahri	2 861,3	113,5
Kogon shahri	1 229,8	110,4

*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar  
soni

**110,6 %**

2021- yilning  
mos davriga  
nisbatan  
o'sish sur'ati

**20 283**  
birlik

**64,7 %**

Ularning  
umumiyl  
sonidagi  
ulushi

**1 936**  
birlikka

2021- yilning  
mos davriga  
nisbatan ular  
sonining  
o'sishi

**Xizmatlar**

**64,7 %**

**15,6 %**

**10,6 %**

**9,1 %**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi**

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra,  
faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Dastlabki ma'lumotlar**  
**2022- yil yanvar-fevral oylarida**

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,7 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,1 %** ga yetdi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7 %** ga teng bo'ldi.

**Savdo – 43,7**

**Boshqa turdagি xizmatlar – 29,5**

**Yashash va ovqatlanish – 12,0**

**Tashish va saqlash – 9,1**

**Sog'lijni saqlash – 4,0**

**Axborot va aloqa – 1,7**

## Dastlabki ma'lumotlar 2022- yil yanvar-fevral oylarida

**Yanvar-fevral oylarida xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes**



**O'sish sur'ati, % da**

2021- y. 104,2 %

2022- y. 109,8%

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

2022- y. • 1 399,0


2021- y. • 1 190,6

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning hissasi, mlrd. so'm**

Shahar va tumanlar	2021- y.	2022- y.
Olot	58,3	68,7
Buxoro	86,3	102,0
Vobkent	66,4	77,7
G'ijduvon	195,7	228,5
Kogon	49,2	57,3
Qorako'l	63,2	73,8
Qorovulbozor	17,8	20,7
Peshku	81,6	104,2
Romitan	72,2	82,9
Jondor	89,4	103,5
Shofirkon	61,1	71,5
Buxoro shahri	299,9	351,1
Kogon shahri	49,5	57,1


2022- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 399,0** mlrd. so'mga teng bo'lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiylajmi hajmida ularning ulushi **65,0** % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning hissasi  
(2022- yil yanvar-fevral oylarida)**




*Dastlabki ma'lumotlar  
2022- yil yanvar-fevral oylarida*

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra,  
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlarning umumiyligi kichik  
tadbirkorlik subyektlarining ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
Tel.: 65-223-79-41